



POLAND



POLAND

## MULLA MUHAMMAD SODIQXOJA VA UNING ADABIY MEROSI<sup>1</sup>

Nasima Qodirova,

Buxoro davlat universiteti doktoranti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.13767328>

**Annotatsiya:** maqola Buxoro adabiy muhitida ijod qilgan shoir, tarixchi, geograf Mulla Muhammad Sodiqxoja Gulshaniy hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Ijodkorning yashab ijod etgan davri, muhiti, davrdosh ijodkorlarining unga munosabati borasida mulohazalar yoritilgan. Gulshaniyning "Tarixi Humoyun" asariga doir ma'lumotlar berilgan, shuningdek, badiiy ijodiga ham to'xtanilgan.

**Kalit so'zlar:** Buxoro adabiy muhiti, Sodiqxoja Gulshaniy, shoir, tarixchi-geograf, "Tarixi Humoyun", g'azal, ruboiy.

Gulshaniy taxallusi bilan ijod etgan Mulla Muhammad Sodiqxoja 1861-yilda Buxoroda Muhammad Mir Sayyid muftiy oilasida dunyoga kelgan. Uning hayoti va ijodiga doir juda ko'p ma'lumot saqlanmagn bo'lsa-da, Buxoro amirligining tarixiy geografiyasiga doir «Tarixi Humoyun» asarida o'ziga doir bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. O'zining ma'lumotlariga ko'ra ajdodlari Mir Sayyid Ali Hamadoniy bilan bog'lanadi. Muhammad Sodiqxoja tarixnavis va shoirlikda mashhur bo'lgan.

Gulshaniy tahsilni Buxoroda madrasalarida oldi. Gulshaniy kamtarona hayot kechirgan va bir muddat 1885-1910-yillarda hukmronlik qilgan amir Abdulahadning qo'l ostida bo'lgan. Amir Abdulahad Buxoro davlat ishlarini tartibga solishga harakat qilgan bo'lsa-da, bu borada muvaffaqiyatsizlikka uchradi va otasi Amir Muzaffar ilgari olib borgan siyosatni davom ettirdi. Natijada Buxoro amirligi muhitini qamrab olgan salbiy ko'rinishlar, xurofotlar keng tarqaldi. Va mamlakatdagi mazkur holatlar Gulshaniy ijodiga tanqidiy ruh olib kirdi.

XIX—XX-asr boshlaridagi adabiy-tarixiy manbalarda Gulshaniyning olimlik fazilatlari, Ahmad Donish, Sadr Ziyo, Nazrullo Lutfiy, Yahyoxo'ja, Mirzo Azim Somiy, Abdullaxo'jai Tahsin va boshqalar bilan adabiy to'garaklardagi ishtiroki, shuningdek, ijodkorlik mahorati xususidagi ma'lumotlar mavjud. Gulshaniyning rus tilini yaxshi bilishi va til o'rganishdagi ishtiyoqi borasidagi ma'lumotlar ham bor. S.Ayniyning yozishicha, Gulshaniy Buxoro madrasalari talabalari orasida birinchi bo'lib "rus tilini puxta egallagan" shaxsdir. U "Sodiqxo'ja ibtidoiy bo'lsa-

<sup>1</sup> Maqola Al-662204396 raqamli "Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo'yicha elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida nashr etildi.



POLAND

## CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

da, o'z davri ilmini o'rgangan, geografiya fanini juda sevgan" (2,22) deb alohida ta'kidlagan. Sadri Ziyo ham Gulshaniyning ruslashuviga ishora qilib:

Bad-on poya donad zaboni rusi,

Bad-on poya donish tu kay rasi? deb yozadi.

Sadridin Ayniy Sharifjon-Maxdumning uyida xizmat qilgan vaqtida Gulshaniy bilan yaqindan tanishgan. Uni o'sha davrning fazilatli kishilaridan biri sanagan. U shunday ta'kidlaydi: "Sharifjon maxdumning xonadoni ilgari shoirlar, nosirlar va olimlar bilan to'lar edi. Abdulvohid bilan birga xizmat qilgan men ham shunday suhbatlarda doim mehmonxonada bo'lib, adabiy suhbatlarda bemalol ishtirok etar edim. Aytishim mumkinki, o'zimning asosiy, muhim adabiy manbalarimni o'sha hovlidan yig'ib olganman. O'sha hovlida Mulla Nazrullo Lutfiy, Abdumajid Zufunun, Yahyoxo'ja, Sodiqxo'ja Gulshaniy... va boshqalarni uchratdim, ularning aksariyati shoir yoki nosir edi. Gulshaniy oppoq chehrali, ko'z qoshlari qora, kelishgan qomatli kishi edi. U kabi go'zal suratli kishi kam uchraydi. U qimmat emas, lekin juda ozada kiyinar edi. U hikoyachi, tarixchi va shirinso'z edi". Sadri Ziyo ham Sodiqxo'ja Gulshaniyning juda ozoda, kelishgan, kamtarin, mehribon, xushmuomala, suhbatdosh bo'lganligini ta'kidlaydi. Gulshaniy o'zini maqtashlarini va maqtanishni yoqtirmasligi va hatti-harakatlari va nutqi, ham go'zal bo'lib, kiyimlari oddiy va nafis matodan tikilganini aytadi.

Gulshaniy qisqa, ammo samarali umr ko'rди. Ustoz S. Ayniy Gulshaniy vafot etgan yilni ham aniqlab, shunday deydi: "Erkin va ma'rifatli hayotga o'rgangan Sodiqxo'ja 1910-yilda vafot etadi" (2,22).

Gulshaniydan bir qancha lmiy-badiiy me'ros qolgan. Uning she'rlaridan ba'zilari "Tarixi Humoyun", Sadri Ziyoning "Tazkori ash'or", S.Ayniyning "Tojik adabiyoti namunalari" kitoblariga kiritilgan. Gulshaniy she'rlari sodda va nafis uslubida yozilgan. Shuningdek, u "Tarixi Humoyun" nomli tarixiy-geografik risola muallifi bo'lib, uning yagona asl nussxasi Tojikiston Fanlar akademiyasining Sharqiy qo'lyozmalar xazinasida saqlanadi.

"Tarixi Humoyun" Mulla Muhammad Sodiq Gulshaniyning 1909-1910 yillarda tojik tilida yozilgan asaridir. Mazkur asar Buxoro amiri - Abdul Ahadxon hukmronlik qilgan davrni nazarda tutadi. Asarda 19-asr oxirigacha Buxoro amirligi va uning hududlari haqida qisqacha tarixiy, geografik va demografik ma'lumotlar ham o'rinn olgan. "Tarixi Humoyun" sakkiz maqola (bob) va bitta alohida bobdan iborat:

1. Buxoro sharif o'lkalari
2. O'rtako'l o'lkalari
3. Suv bo'yи uezdlari



POLAND

# CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

## International scientific-online conference



POLAND

4. Qarshi va G'uzor tumanlar
5. Shahrisabz tumanlari
6. Hisor bekliklari
7. Xatalon o'lkalari
8. Qorotegin o'lkalari

Alohiba bob - Darvaz hukumati.

Har bir bob mintaqaning geografik joylashuvi tavsifi bilan boshlanadi va tabiiy resurslar manbalari, odamlarning faoliyati va mahalliy xo'jalik haqida muhim ma'lumotlarni beradi.

Gulshaniy "Tarixi Humoyun" asarida amirlikning har bir viloyatida nechta shahar, qasaba, qishloq borligi, aholisi haqida yozadi. Macalan, Shahrisabz shahri haqida shahar ikki qator devor bilan o'ralgani, shahar devorining 3 darvozasi (Kitob, Charmgaron, Qarshi) borligi, Qarshi darvozasi yana La'liston ham deb atalishi, darvozadan bir yarim chaqirim yerda amirning La'liston deb ataluvchi chorbog'i bo'lgani, shaharda 45 Madrasa, 64 masjid, 4 xonaqoh, ikki hammom, 15 karvonsaroy bo'lganligi aytildi. Har viloyat, shahar, qasaba aholisining soni va ularning mashg'uloti haqida ham ma'lumot beriladi.

Shuningdek, asarda muallif tomonidan voqealarni aks ettirish, qal'alar, minoralar, obidalar va tarixiy obidalarni tilga olish munosabati bilan ko'plab kishi nomlari qo'llangan. Ayrim afsonaviy va tarixiy va real shaxslarning ismlari, taxalluslar va laqablar, nasl-nasab, joy nomlari va ular bilan bog'lik kishilar nomlari ham keltirilgan.

Shuni ham aytish lozimki, asarda keltirilgan barcha ma'lumotlarni aniq tarixiy faktlarga mos keladi deya olmaymiz. Asarda uning qiziqarli bo'lishi, bundan tashqari muallifning ijtimoiy kayfiyati va jamiyatga munosabatini ifolash uchun turli afsona va rivoyatlar, to'qima va bo'rttirilgan ma'lumotlar ham uchraydi. Masalan, Odam Ato va Momo Havvoning jannatdan quvilishi bilan bog'lik rivoyat keltiriladi. Gulshaniy Odam alayhissalom Sarandebda, Hazrati Havvo Jiddada qulaganlarida, ilon va tovus qaysidir falon shaharda va iblis Rometanga qulagani va Rometan hududining issiq va quruq ekanligini yozadi. Bizningcha, muallifning shaytonning Rometanga qulagani hech qanday diniy va tarixiy asosga ega bo'lmay, bu mulohazalardan maqsad uning bu davrda insonlarning shaytoniy sifatlari – turli illatlaridan noroziligi ifodasidir.

Asar tili muallif yashagan davridagi va sayohatlari hududlaridagi til muhitini aks ettiradi. Gulshaniy voqealarni tasvirlashda dari-tojik tilining lug'at boyligidan ko'proq foydalanishga harakat qilgan, biroq asarda tilda keng tarqalgan arabcha



POLAND

# CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

so'zlar ham bor. Bu dari-tojik tiliga o'zlashib qolgan ko'plab arabcha so'zlar o'sha davrda barcha uchun tushunarli edi.

Gulshaniy she'rlari ifoda jihatidan sodda va ravon. U mumtoz fors-tojik shoirlari, xususan, Sa'diy va Hofiz uslubi va an'analarining izdoshi edi. Quyidagi misralar bu fikrning dalilidir:

Ba otash afkanad la'li labat la'li Badaxshonro,  
 Qadi sarvi tu binshonad zi po sarvi xiromonro.  
 Maro savdoi zulfayni tu oxir kard savdoi,  
 Pareshonxotiram, to didam on zulfi pareshonro.  
 Mahi aflok har shab az ruxi mohi tu megardad,  
 Ba tab afkanda xurshedi ruxat xurshedi tobонро.  
 Shavad mushki Xito nochiz peshi zulfi mushkinat,  
 Kunad xomo'sh sham'i orazat sham'i shabistonro.  
 Na tanho Gulshani az hachrat, ey gul, dog' dar gulshan,  
 Ba rangi lola az ishqி tu didam lolaro'yonro.

(O'zbek tilidagi nasriy bayoni: La'l kabi la'bing Badaxshon la'lini ovovga otadi, sarv daraxri sening qaddiningni ko'rib oyog'ingga yiqiladi. Zulfiq meni oxiri telba qildi, o'sha parishon zulfiqning ko'rGANIMdan buyon men ham parishon bo'ldim. Osmondagи oy har kech oy yuzing uchun keladi, ko'ngling quyoshi osmondagи quyoshdan-da issiq. Zulfiq mushni oldida Xito mushki xijolatda, tunlari yuzing yorug'ligidan sha'm xomushdir. Ishqing gulshanida hajringdan bag'ri dog' bo'lgan faqat Gushaniy emas, sevgindan lolalar rangida qon bo'lgan lolayuzlarni ko'rdim.)

Mazkur g'azalda ma'shuqaning go'zalligi a'anaviy tashbehlarda ifodalangan. Tashbeh, tashxis, husni ta'lil, mubolag'a, ishtiqoq sa'antlarini qo'llash orqali go'zal baddiy ifodalar yaratilgan. Ma'shuqa shu darajada go'zalki, uning labi la'ldan ham qizil, qomati sarvdan ham adil, hatto har kecha osmonda oyning ko'rinisha ham yor husni bilan bog'liq, ya'ni oy ma'shuqani ko'rish uchun har kech sayrga chiqadi. Eng xushbo'y deb qaraladigan Xito mushki yor sochidan taraladigan xushbo'ylikka tenglasha olmaydi. Ko'rINadiki, oshiq uchun ma'shuqa tengsiz go'zallik timsoli. G'azal aruzning hazaji musammani solim (V---/V---/V---/V---) vaznida yozilgan.

Xulosa qilib aytganda, Mulla Muhammad Sodiqxoja Gulshaniy qisqa umni davomida o'zidan ko'plab badiiy, tarixiy-geografik meros qoldirdi. Uning asarlari o'z davri uchun ham, bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo'lib, ularni o'rganish, tadqiq etish adabiyotshunosligimizning muhim vazifalaridan biridir.

## References:

1. Айни С. Куллиёт. Ч.12. /С.Айнӣ.-Душанбе: Ирфон,1976.-С.124-150.



POLAND

# CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES

International scientific-online conference



POLAND

2. Гулшанӣ, Муҳаммад Сиддиқ. Таърихи ҳумоюн. – Душанбе: Пайванд, 2011. -168 с.
3. Намунаи адабиёти тоҷик // Муҳит — Плеханов. — Д.:СИЭСТ, 1984.